

RENAISSANCE OF TIMURID PERIOD AND ITS PLACE IN WORLD CIVILIZATION

Sodiqova Muhabbat Salimovna
Andijon davlat pedagogika instituti
ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATION

In this article, the concept of renaissance, renaissance and renaissance during the Timurid period, the culture of Timur and the Timurid era were briefly covered by the author, and the contribution of the renaissance of the Timurid era to the world civilization was given.

Key words and phrases: renaissance, Amir Temur, Timurids, Islam, empire, culture, art, rule, idea, middle age, renaissance, Samarkand, Mirza Ulugbek, Shahrukh, successor.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif tomonidan renessans tushunchasi, Temuriylar davrida renessans va uyg'onish davri, Temur va temuriylar davri madaniyati qisqacha yoritildi. Temuriylar davri renessansining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi to'g'risida ma'lumot berib o'tildi.

Kalit so'z va iboralar : renessans , Amir Temur, temuriylar, islom , imperiya, madaniyat, san'at, hukmronlik, g'oya, uyg'onish, Samarqand, Mirzo Ulug'bek , Shoxrux , voris.

АННОТАЦИЯ

В данной статье автором кратко освещены понятия ренессанса, ренессанса в период Тимуридов, культура Тимура и тимуридская эпоха, а также дан вклад ренессанса эпохи Тимуридов в мировую цивилизацию.

Ключевые слова и фразы: ренессанс, Амир Темур, Тимуриды, ислам, империя, культура, искусство, правление, идея, ренессанс, Самарканд, Мирза Улугбек, Шахрух, преемник.

Renessans so'zi o'zi nima ?

“Renessans” lug'aviy fransuzcha “qayta tug'ilish” degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan. Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning 1909-yilda “Musulmon Renessansi” nomli fundamental asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo'la boshladi.[1:1]

Aslida renessansning sharq olamida paydo bo'lishi ibtidoiy davrlarga borib taqaladi . Masalan olib qaraydigan bo'lsak ilk yozuvlarning paydo bo'lishi ham ilk renessans bo'lgan davr deb qaralsa bo'ladi . Chunki insonlarda ilk yozuvning paydo bo'lishi va ishlab chiqarishda yangicha

kasblar paydo bo'lishi, jamiyatning boshqaruv usullarining shakllanishi, umuman olganda yangi bosqichga, yangi darajaga ko'tarilishi bu renessans – uyg'onish deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan bu bosqich milloddan avvalgi IV ming yilliklarga neolit davriga to'g'ri keladi. Yuqorida keltirilgan hodisalarni renessansga tushadi deb qaralsa, sharq olamida renessans ilk bosqichi milloddan avvalgi IV ming yillikka neolit davriga to'g'ri keladi.

Undan keyingi davrlarni butun jahonni o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan renessans ilk o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda Islom dinining yoyilishi va dunyoviy fanlarning rivojlanishi, fanlarning tavsiflanishi ayniqsa sharq allomalarining deyarli barcha fan sohalaridagi ijodlari, ilmiy ishlari, asarlari hozirgi dunyo fan texnikasining rivojlanishiga juda katta ta'sir o'tkazgan. Va dunyoni umuman o'zgarishiga hayotning yengillashishiga sabab bo'luvchi texnikalarni yaratilishiga asos bo'ldi. Bu ham keyingi bosqich renessansi hisoblanadi.

Keyinchalik bu renessansni davom ettirgan merosxo'rlari, sharq allomalari Temur va temuriylar homiyligida, olib borgan siyosatida ilm – fanning rivojlanishiga katta yordam berdi. Buni biz fanda temuriylar renessansi deb atasak ham bo'ladi.

Temuriylar Renessansi davri Osiyo va Islom tarixida XIV asr oxiridan XVI asr boshlariga qadar davrni qamrab olgan tarixiy davr edi. Islomiy Oltin asrning asta-sekin pasayishidan so'ng Temuriylar sulolasi boshqargan O'rta Osiyoda joylashgan Temuriylar imperiyasi san'at va fanlarning qayta tiklanishiga turtki bo'ldi. Mazkur harakat butun musulmon olamiga keng tarqaldi. Renessans so'zi fransuzcha „qayta tug'ilish“ degan ma'noni anglatadi va davrning madaniy tiklanish davri sifatida belgilaydi. Temuriylar davriga nisbatan mazkur atamadan foydalanish olimlar orasida noroziliklarni keltirib chiqardi, ularning ba'zilar buni temuriylar madaniyatining oqqush qo'shig'i deb bilishadi.

Temuriylar Renessans davri Yevropa Renessansi bilan bir vaqtda kechdi. U shon-sharaf nuqtayi-nazaridan Itaiyaning Kvadrosentosiga teng deya ta'riflanadi Temuriylar uyg'onish davri XV asrda, mo'g'ul bosqinlari va istilolari yakunlangach o'z cho'qqisiga erishadi.

Fors-islom g'oyalari asosida Temuriylar renessansi quyidagilarni o'z ichiga oladi: Samarqandning qayta qurilishi, Yirik sharqshunos olim V. V. Bartold ta'kidlaganidek, Amir Temurning fikriga ko'ra, Samarqand jahonning birinchi shahri bo'lishi kerak edi. Amir Temur tomonidan Temur shaxmatining kashf etilishi, Temur shaxmati yoki Tamerlan shaxmati shaxmatning o'rta asrlardagi variant hisoblanadi. Zamonaviy shaxmatga o'xshash, Temur shaxmati shatranjdan olingan. Temuriylar shaxmati O'rta Osiyoda Turkiy hukmdor Temur davrida rivojlangan va uni Amir Temur ixtiro qilgan. [1:2] Temuriylar shaxmati chaturanganing kattaroq varianti bo'lgani uchun u Shatranj ash-shaghir (Kichik shaxmat) o'rniga Shatranj Al-Kabir (Buyuk shaxmat) deyiladi. O'yin zamonaviy shaxmatga o'xshasa-da, [2:2] masalan, piyonlar o'ziga xos variantlarga ega. [3:2] Shohruh Mirzo va rafiqasi Gavhar Shodbegimning Hirotdagi (Italiya madaniy Uyg'onish markazi Florensiyaga raqobatchi sifatida mashhur) hukmronligi, astronom va matematik olim Mirzo Ulug'bek davri, U faoliyati Observatoriya qurib, yulduzlarni tekshirdi, sxemasini tuzdi «Ziji Ko'ragoniy» nomli yulduzlar xaritasini tuzib, kelajak avlodlarga buyuk meros qoldirdi. [4:2] Shuningdek san'at homiysi Husayn Boyqaro tomonidan bir qator o'quv dargohlarining qurilishi. **Sulton Husayn Boyqaro asos solgan bu ulug' maskanda ilmi toliblar, yosh olimlar Sulton va uning vaziri ko'magida ta'lim-tarbiya olganlar, ilmiy izlanishlar olib borganlar, turli xil hunarlar bilan mashg'ul bo'lganlar, xattotlik qilganlar. Hukmdorning o'zi**

“Risola” asarida shu davrda Hirot va uning atrofiga mingga yaqin shoir badiiy ijod – she’riyat bilan mashg’ul bo’lganlar. O’sha davrdagi yodnomalarning aksariyatida Hirot shahri ilmiy-madaniy markaz sifatida e’tirof etilgan va buning asosiy omili ijtimoiy-madaniy sohalarda Sulton Husayn Boyqaroning oqilona siyosati, deb baholalaganlar. Bu borada Davlatshoh tazkirasida, “Boburnomada”, Mirzo Haydar Do’g’lotning “Tarixi Rashidiy”sida va yana o’nlab manbalarda ma’lumotlar mavjud.[5:2]

Amir Temur hukmronligi davrida klassik fors san’atiga qiziqish qayta tiklandi. Yirik qurilish loyihalari bo’lmish mavzoley, madrasa va kutubxonalar qurildi. Amir Temur shaharlarga e’tiborini qaratib, dastlab o’zi tug’ilib o’sgan yurti Shahrisabzda mahobatli Oqsaroy va ko’rkam masjidlar, poytaxt Samarqandda ulug’vor, hashamatli binolar, Turkistonda, Damashq va Tabrizda masjidu madrasalar barpo etishda bosh-qosh bo’ldi. Bu davrda Samarqand va Hirotidan tashqari Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Balx, Mashhad, Sheroz kabi ko’plab madaniy markazlar mavjud bo’lib, bu markazlarga jahonning ko’plab ilm-fan egalari yig’ilgan edi.[1:3] Matematik va astronomik tadqiqotlar o’tkazish qayta tiklandi va XVI asr boshlariga kelganda o’qotar qurollarni o’zlashtirishga ham erishildi.

Amir Temur hayotligidagi asosiy qurilish ishlari sifatida Shahrisabzdagi Yozgi saroy, Bibi-Xonim masjidi va Ahmad Yassaviy maqbarasini ko’rsatish mumkin. Bu davrda Hirot shahri musulmon dunyosida ilmiy va badiiy hayotning muhim markaziga aylandi. Samarqand shaharda amalga oshirilgan qayta qurish va yuksak e’tibor natijasida Renessans va madaniyat markaziga aylandi.

Temuriylar Uyg’onish davri avvalgi Buyidlar sulolasining madaniy va badiiy taraqqiyotidan farq qilar edi, chunki bu mumtoz madaniyatning bevosita qayta tiklanishi emas, balki yanada keng tarqalgan turkiy va rasmiy til kabi fors tiliga ham yangi so’zlashuv usublarini qo’shish ham edi. Temuriylar Uyg’onish davri Mo’g’ullar imperiyasidan meros qilib olingan va Islomiy porox imperiyalari davridagi boshqa davlatlarga (Usmonlilar Turkiyasi va Safaviylar Eroni) sezilarli ta’sir ko’rsatgan.

Amir Temur davrida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo’lgan. Sohibqiron o’z davrining fan va madaniyati jonkuyari sifatida shuhrat qozondi. Temur taqvodor ruhoniylarga chuqur hurmat bilan qaradi. Ularning duolarini oldi, doimo kamsitilgan mazhab tarafdorlarini o’z himoyasiga oldi. Darvesh, faqir va miskinlarni o’ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslik uchun barcha talablarini bajardi.[2:3]

Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat o’sha davrdan boshlab nafaqat o’z yurtida xalq etiboriga tushgan va hattoki qo’shni mamlakatlar va ularning podsholarini, balki uzoq yurtlar hukmdorlarini ham o’ziga jalb etib kelgan. Tarixiy hujjatlar dalolat berishicha, XIV asrning 70-yillaridanoq Yevropa davlatlari vakillari Movarounnahrda kelib, bu yerdagi yangi, mustaqil davlatning qudrati va salohiyati bilan jiddiy qiziqqanlar. Amir Temur davlati bilan siyosiy - iqtisodiy aloqalarni o’rnatishga harakat qilganlar.

Sohibqiron ham, o’z navbatida, ayniqsa, qudratli saltanat shakllangach, o’sha davrning deyarli barcha yirik davlatlari va ularning hukmdorlari bilan faol diplomatik aloqa o’rnatgan. Turli davlatlarga o’z elchilarini yuborgan, shuningdek, uning huzuriga yo’llangan xorij elchilarini qabul qilgan.

Amir Temur Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III (ayrim manbalarda – Ispaniya qiroli Genrix III), Fransiya hukmdori Sharl VI (ayrim manbalarda – Karl VI), Angliya qiroli Genrix IV

saroyiga elchilar yuborgani, o'z navbatida, ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa bir qator – jami 20 dan ortiq xorijiy davlat elchilarini o'z poytaxti Samarqandda qabul qilgani haqida atroflicha bayon etilgan ko'plab tarixiy va ilmiy asarlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Temur shaxsi yevropada juda kata qiziqish bilan o'rganiladi. Temur yevropada “yevropa halaskori” deb qaraladi. Shuning uchun ham qiziqish juda kata Temur biografiyasi, tarixi, siyosati to'g'risida ko'plab asarlar yozilgan.

Birgina Professor L.Keren oladigan bo'lsak u Amir Temur va uning Yevropa bilan aloqalariga bag'ishlangan bir qator asar va maqolalar muallifidir. Uning eng asosiy kitoblaridan biri “Temur yoxud Sohibqiron saltanati” ilk bor 1978 yilda bosilib chiqqan. Uning yirik asarlaridan yana biri “Temur davrida Samarqand yo'li” (Parij, 1990) kitobi YUNESKOning “Ipak yo'li – muloqotlar yo'li” dasturi doirasida tayyorlangan.

Lyusyen Kerenning bu kitoblari uni dong'i ketgan temurshunos olimlar qatoriga qo'shgani bejiz emas. Ayniqsa, Sohibqironning Yevropadagi o'rni va xizmatiga oid fikrlari diqqatni jalb etadi. Olim Amir Temur Yevropa andozasidagi buyuk davlat boshlig'i va muzaffar sarkarda, mohir diplomat va ilm-fan homiysi ekanini alohida qayd etgan.[3:3]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Amir Temur haqida qancha-qancha maqtovli so'zlar aytilsa oz. U o'z davrining yetuk davlat arbobi bo'lib, siyosatda, iqtisodda, xalq ijtimoiy holatida, obodonlashtirishda, umuman hamma sohalarda o'zi bosh bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://fjsti.uz/detail/renessans-nima?menu_id=71
2. Cazaux, Jean-Louis and Knowlton, Rick (2017). A World of Chess, p. 31. McFarland. ISBN 9780786494279. „Often known as Tamerlane chess, [its invention] is traditionally attributed to the conqueror himself.“
3. 1968. ISBN 9780804811224.
4. „Triple Chess“. Valpy (21 kasim 1826).
5. https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=mirzo_ulug%E2%80%98bek_jahon_tamaddunidagi_muhim_shaxs-v8W
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/husayn-boyqaro-madaniyat-va-ma-naviyat-homiysi>
7. <https://dsmi.uz/wp-content/uploads/2019/01/ip-04-2018.pdf>
8. <https://english-life.uz/amir-temur-va-temuriylar-hukmronligi-davrida-ilm-fan-va-madaniyat/>
9. <https://xs.uz/uz/post/frantsuz-olimi-amir-temurning-siyosij-zakovatiga-diplomatik-mahorati-va-bunyodkorligiga-tan-bergan>